

ILMULUQCHILIK KENGASHI:

S.rojiddin SAYYID
Muhammad ALI
Kengesboy KARIMOV
Iqbol MIRZO
Qurbon SHONIYOZOV
O'rozboy ABDURAHMONOV
Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi:

G'iyosiddin O'NAROV

Texnik muharrir:

Ulug'bek SAIDOV

Manzirimiz: Qoraqalpog'iston

Respublikasi, Beruniy tumani.

Web-sayt:

<https://tamaddunnuri.uz>

e-mail:

tamaddunnuri1@gmail.com

Telegram kanali:

<https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55,

(+99897) 355 75 40.

Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda

O'zbekiston Respublikasi

Matbuot va axborot agentligi

tomonidan № 0843 raqami

bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

O'zbekiston Respublikasi OAK

tomonidan 2019-yil

30-yanvarda chop etilgan OAK

rayosati qarorlari bilan

tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra

07.00.00 - "Tarix", 09.00.00 -

"Falsafa", 10.00.00 - "Filologiya"

ixtisosligi bo'yicha; OAK

Rayosatining 2023-yil

31-oktyabrdagi 345-son qarori

bilan 12.00.00 - "Yuridik

fanlar", 13.00.00 -

"Pedagogika", 19.00.00 -

"Psixologiya" ixtisosliklari

bo'yicha doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy

natijalarini chop etish tavsiya

etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga

kiritilgan.

FILOLOGIYA

Xadicha MURTAZAYEVA. Tibbiy terminologiya va izohli lug'atlarning ahamiyati.....14

Bog'dagul QARSHIYEVA. Muhandislik yo'nalishi talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda multimediali vositalarning turlari va o'rni.....17

Qonisbay SARSENBAYEV. To'lepbergen Qayipbergenovning «Tánhá óziñe málim sír» qissasida monologlardan foydalanish mahorati.....24

Aziza TEMIROVA. Zamonaviy tilshunoslikda «yashil» sifat belgisining semantik xususiyatlarining tadqiqi.....26

Maftuna NARZIKULOVA. Cognitive-pragmatic approaches to character analysis: understanding the inner world of literary characters.....28

Botir ZARIPOV. Navoiy asarlarida "ot" leksemasini ifodalovchi lug'aviy birliklar va ularning badiiyati.....32

Sevara XIDIROVA. Ingliz va o'zbek tillarida harbiy sohaga oid terminlar tahlili.....35

Сурож ДАВЛАТМУРАТОВ. Языковая картина мира русского и узбекского языков (на материале пословиц и поговорок).....44

Charos UMMATKULOVA. The development of cultural awareness among students in philological higher education establishments through podcasts.....47

Shamsiya EGAMBERDIYEVA. O'zbek va turk allalarida qo'llanilgan gul va nur bilan bog'liq troplarning (istiora) badiiy vazifadorligi.....50

Feruz NORMATOVA. Badiiy hikoyaning o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimai muammolari.....84

Oysulov URALOVA. Ingliz va o'zbek tillarida sodda gap shaklidagi zookomponentli maqollar tahlili.....87

Nodirabegim NURIDDINOVA. Ingliz tilida to'y konseptiga oid lingvomadaniy leksemalar tahlili.....89

Saltanat PO'LATOVA. Ta'lim sohasida media savodxonlikni oshirish.....98

Sayyora PULATOVA. The main peculiarities of the literary text translation (on the example of the novel "Ulysses" by James Joyce).....101

Nilufar SAITOVA. Yosh o'zbek shoirlari ijodida lirik kechinma va badiiy ko'chimlar uyg'unligi.....104

Venera USENOVA. Ingliz va qoraqalpoq ertak diskursidagi mifologik konsept birliklarining tasnifi.....107

Oybek MATYAKUBOV. «Ertak konsepti» hamda «ertak freymi»ning mohiyati112

Jo'rabek YULDASHEV. Nurobod tumanidagi ayrim etnoykonimlar xususida mulohazalar.....119

Раънохон ХУДЖАЕВА. Инглиз бадий асарларида омонимлар таржимасининг "концептуал" тахлили.....140

Amonkeldi AXMATOV. Vuxoroda ijod qilgan afg'on adiblari145

Хуррам РУЗИМБАЕВ. Классификация топонимов по видам в романе М.Булгакова «Мастер и Маргарита»148

Marhabo AXMEDOVA. Ogahiyning "Riyozi-d-davla" asari onomastik birliklari lingvopoetikasi.....162

Dilorom QO'ZIYEVA. Ogahiy g'azallarida faqr maqomi va faqir obrazi.....176

Abdulla XUDOYBERGANOV. Sulaymon Boqirg'oni ijodida tariqat eshigidagi maqomlar talqini xususida ba'zi mulohazalar.....182

Munis JO'RAYEVA. Baxshilik san'atidagi ustoz-shogird an'analari haqida ba'zi mulohazalar.....188

Islom BOYNAZAROV. The structure of philosophical terms in Uzbek and English languages.....191

Sherzod SHAVKATOV. O'zbek tilshunosligida fe'l va uning birikuvchanlik xususiyatlari o'rganilishi.....199

Nilufar ABDIG'ANIYEVA. Particularity of developing the professional competence of EFL teachers.....202

Камола МИРФАЙЗИЕВА. Применение цифровых технологий в образовательном процессе.....206

Iroda YUSUPALIYEVA. Maqol lingvistik tadqiqot obyekti sifatida.....246

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 6,5. Indeks – 960. ISSN 2181-8258.

"ADAD PLYUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona. Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy. 2024-yil, 1-son (52).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №20.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart.

Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, muallifga qaytarilmaydi.

BIZNI IJTIMOY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:





7. Ожгихина, Е.С. Концептуальный анализ рекламного текста с позиции гендера: На материале современного английского языка. Уфа. 2006.

8. Сулиман Эльтайеб. Эльзейн Эльтайеб. Русское концептуальное поле ВЕРА: на фоне арабо-мусульманской лингвокультуры. – Москва. 2013.

9. Тухтаходжаева, Н.А. Национально-культурная специфика концепта “счастье” в разносистемных языках//Филологические науки, Международный научно-исследовательский журнал, 2012, No 6.

10. The Oxford dictionary of the English language. В. 13 т. Oxford, 1967.

11. Цзи, Сяосяо. Прагмалингвистические особенности функционирования метафоры в политическом дискурсе (на материале выступлений американских президентов). – Москва. 2019.

12. Юсупов, Ў. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокултурама атамалари хусусида / Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида – Тошкент, 2011. – Б. 49-55.

TAMADDUN NURI

FALSAFA

UO'K: 821.512.133.

BUXORODA IJOD QILGAN AFG‘ON ADIBLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro adabiy harakatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega bo‘lgan adabiy aloqalar, shu jumladan Buxoroda yashab ijod qilgan afg‘on adiblarining hayoti va ijodi, adabiy muhitga ta’siri o‘rganilgan.


Tayanch so‘zlar: adabiy muhit, adabiy aloqalar, afg‘on, Mulla Mahmud, Rahimiy, Zuhuriy, Buxoro amirligi, tazkira, Ayniy, fors-tojik.

Аннотация: В данной статье изучаются литературные связи, занимающие особое место в истории бухарского литературного движения, в том числе жизнь и творчество афганских писателей, живших и творивших в Бухаре, и их влияние на литературную среду.

Ключевые слова: литературная среда, литературные связи, Афган, Мулла Махмуд, Рахими, Зухури, Бухарский эмират, тазкира, Айний, персидско-таджикский.

Annotation: This series of articles examines literary connections that occupy a special place in the history of the Bukhara literary movement, including the life and work of Afghan writers who lived and worked in Bukhara, and their influence on the literary environment.

Key words: literary environment, literary connections, Afghan, Mulla Mahmud, Rahimi, Zuhuri, Bukhara Emirate, tazkira, Ain, Persian-Tajik.



Amonkeldi AXMATOV, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent



Kirish. Afg‘on adabiyotining taraqqiyot davrlarini o‘rganish uchun mamlakatda ro‘y berib kelgan tarixiy voqealarni hisobga olmasdan bo‘lmaydi. Afg‘on xalqining tarixi Eron, O‘rta Osiyo, Hindiston, Pokiston kabi qo‘shni mamlakatlar xalqlari tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi Afg‘oniston hududi bir necha asrlar davomida sharqdagi turli davlatlarga qaram bo‘lib kelgan. Afg‘onistonda hukmronlik qilgan Arab xalifaligi, G‘aznaviylar,



g'ullar, Kurtlar, Temuriylar, Boburiylar, Safaviylar shular jumlasidandir. Ingliz mustamlakachi-lariga qarshi olib borilgan janglar natijasida XIX asr davomida Afg'onistonda ijtimoiy hayot tushkun-likka uchradi.

Qadimdan mamlakatlar, xalqlar o'rtasida aloqalar yo'lga qo'yilib kelinganligi barchaga ayon. Shu jumladan, ijodkor adiblar faoliyatidagi o'zaro mushtaraklik adabiy aloqalarni tashkil qiladi. O'zbek adabiyotining muhim bo'g'ini hisoblanmish Buxoro adabiy muhitida ham ijodiy hamkorlik masalalari muttasil davom etib kelmoqda. Ushbu maqolada Buxoro adabiy harakatchiligining afg'on xalqi bilan olib borgan ijodiy birdamligi haqida so'z boradi.

Afg'on mumtoz adabiyotiga fors-tojik adabiyotining eng yaxshi namoyandalaridan Rudakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Sa'diy, Hofiz, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Bedil; o'zbek adabiyotidan Navoiy, Bobur kabi shoirlarning ta'siri juda katta bo'ldi. Afg'on klassik shoirlari o'z ijodlarida fors-tojik adabiyoti an'alaridan keng foydalanib, pushtu va forsiy tillarida go'zal she'riy asarlar yaratdilar.

XVII-XVIII asrlar afg'on adabiyoti tarixida eng sermahsul davr hisoblanadi. Shu davrda ijod etgan ko'pgina shoirlar o'zlarining gumanistik g'oyalari bilan hozirgi kunda ham hurmat bilan tilga olinadilar. Ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida XIX asr davomida Afg'onistonda ijtimoiy hayot tushkunlikka uchradi. XIX asrning oxirlariga kelib afg'on adabiyoti Peshovarda qayta jonlana boshladi. Hozirgi zamon afg'on adabiyotiga XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ijod etgan peshovarlik yozuvchilardan Mavlaviy Ahmad, Mir Ahmadshoh, Rizvoni, Munshi Ahmadjonlar katta hissa qo'shdilar [1,10]. Ularning ijodida asosan proza janri rivojlandi.

Buxoro va Afg'oniston o'rtasida ko'p asrlardan buyon o'zaro aloqalar yo'lga qo'yilgan. Turli tarixiy jarayonlarda ikki mamlakat fuqarolari o'rtasida madaniy, adabiy-ijodiy aloqalar muttasil davom etib kelgan. Afg'onistonning Balx, Kobul, Maymana, Shibirg'on, Hirot shaharlari orqali uzluksiz aloqalar o'rnatilgan. Afg'oniston va Buxoroni tutashtiruvchi savdo-sotiq va karvon yo'llarida tuyalar muntazam qatnagan. 1885-1888-yillardagi demarkatsiya shartnomalaridan keyin ikki davlat o'rtasidagi chegara chizig'i Amudaryo orqali o'tib, Kerki, Kelif, Ayvaj

bojxona punktlari tashkil qilingan. Chego yo'llarining nazorati, Buxoro-Afg'oniston savdo masalalari Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tadi. Shunday bo'lsa-da adabiy aloqalar mushtarakligi davom etgan. Buxoro amirligida ko'plab afg'on millatiga mansub yoki afg'onistonlik ijodkorlar yashab ijod qilganliklari tazkiralarni o'rganish jarayonida oydinlashib bordi. Quyida ularning ayrimlari haqida qisqacha ma'lumotlar keltiriladi.

Rahimiy nomi bilan ijod qilgan adib asli hozirgi Afg'onistonning Balx shahridan bo'lgan. Darveshona xarakterdagi inson bo'lib, o'zi ham shu tarzda hayot kechirgan. Buxoroga kelib shu yerda qolib ketadi. Mashrabona kishiligidan atrofidagi muxlislari uni Rahim devona deb ataganlar [320]. Bizga ma'lumki, Buxorodagi xonadonlarda tez-tez adabiy kechalar bo'lib turgan. Ushbu adabiy kechalar albatta musiqa va sozandalarsiz o'tmas edi. Bu haqida Sadridin Ayniy "Esdaliklar"ida ham qayd qilib o'tgan. Musiqa san'atidan xabardor bo'lgan Rahimiy tanburni yaxshi chalgan. Tanbur ijrosida mumtoz g'azallarni kuylab, yig'ilganlarni xushnud qila oladigan iqtidori tufayli adabiy kechalarga taklif qilingan. Shu alfozda o'zi ham she'rlar yozib yod aytgan. Qori Rahmatulla Vozehning "Tuhfat ul-ahbob" asarida yozilishicha, "Ilmi yaxshi bo'lsa-da, ko'knoriga giriftor bo'lib, borgan sari jununi ziyodalashib bosh-oyoq yalang ko'cha bozorlarda yura boshlamishdir". Muallifning yozganlarini o'z holicha keltirishdan o'zga chora topmaganimiz bois aynan keltirdik. She'riyati yaxshi bo'lgan. Musiqa san'atini bilganchalik she'r san'atini bilmasa-da, iqtidori borligi ayon bo'lgan. Rahimiy hijriy taxminan 1270-yilda, milodiy 1853-59-yillar oralig'ida vafot etgan. Quyudagi ruboiy uning qalamiga mansub:

Baski, bemoram zit obi hijroni on mujgonu chashm,

Baxri omad odam g'assae boyad az nargis kuned.

Muflisonro dar tamoshogohi xo'bon yor nest,

Ag'niyo baxri xudo rahme ba in muflis kuned.

Paymo nomi bilan aytilgan yana bir shoir Buxoroda yashagan bo'lib, Mulla Mahmud deb ham ataganlar. Otasi asli Balx viloyatidan bo'lib, tahsil olish maqsadida Buxoroga keladi. Shu yerda oila qurib, ishlab qolib ketadi. Mahmud ham Buxoroda tavallud topadi. Mulla Mahmud dastlabki ta'limni otasidan, so'ngra mahalliy

maktabda oladi. Farzandining ilmi bo'lishini istagan otasi Mahmudni boshqa bir qator davrining taniqli ustodlarida o'qitib olim qiladi. Asosan tarix va adabiyot tarixi bilan shug'ullanib sohaning bilimdoniga aylanadi. Go'zal xulqli shoir Paymo adabiy janrlarni yaxshi o'zlashtiradi. Muammo janrini o'z she'rlarida yaxshi qo'llab, shu mavzuga doir bir kitob ham yozadi. Tazkirada musiqa san'atidan ham xabari borligi yoziladi [3,27]. Umrining oxirlari nochorlikda o'tadi. Nechun shunday olim-u shoirning hayoti baxtiqoralikka uchragani bizga qorong'u. Buxoro shahridan qochib ketib, sarsonlikda yashaganligi ma'lum, xolos.

Quyidagi bayt uning she'rlaridan olingan:

Itifote nest mo sohibdilon aflokro,

Tiri baxtiy dud boshad shulai idrokro.

Zuhuriy taxallusli ijodkorning otasi Afg'onistonning Qobul shahridan bo'lgan. Mulla Sadridin Qobiliy nomi bilan tanilgan olim bo'lgan. O'g'li Buxoro shahrida tug'iladi va unga Zuhridin deb ism qo'yishadi. Keyinchalik tazkiralarda mulla Zuhridin maxdum deb keltirilgan. "Sho'ri" laqabi bilan atalgan. Diniy ta'limdan yaxshi xabardor bo'lib, Qur'onni xatm qilgan. Keyinchalik tasavvuf bilan shug'ullanadi. Izlanishlar jarayonida Kubraviylik tariqatiga qiziqib qoladi va shu yo'ldan ketadi.

Geometriya, geografiya va tibbiyotdan ham yaxshi xabaror bo'lgan. She'rlarini forsiy tilda yozgan. Kichik bir devon tuzganligi tazkirada keltirilgan [3,33].

Quyida uning baytlaridan misol keltiriladi:

Boz in chi fitna astki uftoda dar jahon,

Az aksi aftobi jamoli parivashon.

*Oshifta ast baski, Zuhuriy zi dardi ishq,
Lo yazraul mazohiru fi sarvi al ayon.*

Xulosa qilib aytganda, Buxoro adabiy muhitida baynalminallik an'anasi doimo mavjud bo'lib, qo'shni xalqlar bilan ijodiy hamkorlik muttasil davom etib kelgan. Afg'on xalqining davlatchilik tarixi murakkab va ziddiyatli bo'lgani bois, ijodkorlar Buxoro amirligi hududida istiqomat qilib, qalam tebratishni ma'qul bilganlar. Maqolani yozish davomida bir qator tazkiralarni tahlil va tadqiq qilish orqali yuqorida yozilgan ma'lumotlar afg'on adiblarining Buxorodagi faoliyatlaridan bir parcha ekanligi, ushbu jarayonni turkum maqolalar shaklida davom ettirish kerakligi keyingi tadqiqotlarni talab qiladi. XIX asrning oxirlariga kelib afg'on adabiyoti Peshovarda qayta jonlana boshladi. XX asr boshlarida ijod etgan peshovarlik yozuvchilardan Mavlaviy Ahmad, Mir Ahmadshoh, Rizvoniy, Munshi Ahmadjonlarning ijodida asosan proza janri rivojlandi. Keyingi davrlarda sovet davlati bilan hamkorlik dasturlari asosida afg'on adiblarining Buxoro adabiy muhiti bilan aloqalari kengaya bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Afg'on shoirlari (g'azal va ruboiylar). –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1974. -120 b.
2. Ахматов А. Бухорода фаолият юритган афгон адиблари (birinchi maqola). Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2023 йил №9). –Б 13-15.
3. Qori Rahmatulloh Vozeh. Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat-il-as'hob. –Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 2001. 64 b.

